



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARNING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASSTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI	316
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	323
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
MILLIY YASHIL TAKSONOMIYANING O'ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	329
Usmonova Gulasal Akmal qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINI ISLOH ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	334
Bekimbetova Asal Ergash qizi	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ ТЕНДЕРОВ К ЭЛЕКТРОННЫМ ПЛАТФОРМАМ	340
Ризакулов Шерзод Шермуратович	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASH AMALIYOTINING EKONOMETRIK PROGNOZI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	346
Jumayev Azamat Qurbonali o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARIGA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH MEXANIZMLARI	352
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich ADVOKATLIK XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	360
Turayev Shaxriyor Shodiyorovich OLIY TA'LIM XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	366
Pardayev Jaxongir Sobirjon o'g'li TIJORAT BANKLARINING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ISHTIROKINI OSHIRISH YO'LLARI	372
Butayev Axror Abduxolikovich GLOBALASHUV VA RAQOBAT SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI O'TKAZISHNING MUHIMLIGI HAMDA UNING KELGUSI ISTIQBOLLARI	385
Nizamov Umid Najimovich PATHWAYS TO SUSTAINABLE ENERGY TRANSITION IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF POLICY AND INVESTMENT MECHANISMS (EVIDENCE FROM INPUT-OUTPUT-CGE MODEL)	391
Gulmuxamedova Dilbar O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	399
Xakimov Ulug'bek Abdullayevich HUDUDLARDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA HOLATINI TAHLILI	405
Nozimov Eldor Anvarovich AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH	410
Kuvatova Dinara Anvarovna HUDUDIY IQTISODIY SALOHİYAT VA ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH	416
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna QAYTA ISHLASH SANOATINI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MODEL VA PROGNOZLAR	421
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	425
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA "YASHIL IQTISODIYOT" SHAROITIDA MULKCHILIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	429
Tashmuhammedova Mahina ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОВЕРИТЕЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ДОЛЯМИ	437
Ибрагимов Махмуд Баходирович QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA INVESTITSİYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	445
Ro'ziboyeva Zebiniso Umidbekovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AUTSORSING XIZMATLARINING XUSUSIYATLARI	452
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI OSHIRISH JARAYONLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	456
Alimova Shamsiya Abidovna	



TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	464
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
ECONOMETRIC METHODOLOGY AND ASPECTS OF SUSTAINABLE TRANSPORTATION DEVELOPMENT IN THE KHOREZM REGION	470
Karimboev Dilshod	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA "NAVOIY KMK" AJ INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH	475
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	481
Muxamedova Mavjuda Shuxratovna	
IQLIM O'ZGARISHI VA SUV TANQISLIGI SHAROITIDA YER RESURLARIDAN UNUMLI FOYDALANISHNI RAG'BATLANTIRISH	487
Safiyeva Nigora Nurmuxamadovna	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TAMOIYILLARI ASOSIDA MEHNATGA LAYOQATLI YOSH DAN KATTA AHOLI UCHUN XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	492
Ochilova Nargiza Akramovna	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	500
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	507
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLİYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o‘g‘li
Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy ahamiyati, amaldagi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot, bandlik, xizmatlar, chakana savdo va asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi bilan bir qatorda, 2021–2025-yillarda kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan bank kreditlari dinamikasi baholangan. Bank kreditlashida resurs bazasi, kredit riski, garov ta‘minoti, raqamli skoring, kafillik va riskni bo‘lishish mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Tahlil natijasida riskka asoslangan differensial segmentatsiya, muqobil raqamli ma‘lumotlardan foydalanish va uzoq muddatli resurslarni kengaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tijorat banklari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kreditlash, investitsiya, kredit riski, kafillik, raqamli skoring, tadbirkorlik.

Аннотация: В статье проанализированы экономическое значение, современное состояние и тенденции развития финансовой поддержки субъектов малого бизнеса коммерческими банками в Узбекистане. Наряду с оценкой доли малого предпринимательства в валовом внутреннем продукте, занятости, сфере услуг, розничной торговле и инвестициях в основной капитал исследована динамика банковских кредитов, выделенных субъектам малого и среднего предпринимательства, а также населению для осуществления предпринимательской деятельности в 2021-2025 годах. Освещено значение таких механизмов банковского кредитования, как ресурсная база, кредитный риск, залоговое обеспечение, цифровой скоринг, гарантии и распределение рисков. По результатам анализа разработаны предложения, направленные на внедрение дифференцированной сегментации на основе риска, использование альтернативных цифровых данных и расширение долгосрочных финансовых ресурсов.

Ключевые слова: малый бизнес, коммерческие банки, финансовая поддержка, кредитование, инвестиции, кредитный риск, гарантии, цифровой скоринг, предпринимательство.

Abstract: The article analyzes the current state and development trends of financial support for small business entities by commercial banks in Uzbekistan. The role of small entrepreneurship is assessed through its shares in GDP, employment, services, retail trade and fixed capital investment. Particular attention is paid to bank lending resources, credit risk, collateral, digital scoring, guarantees and interest-cost compensation mechanisms. The paper proposes a risk-based differentiated approach, wider use of digital data and expansion of long-term funding instruments for improving access of small businesses to finance.

Keywords: small business, commercial banks, financial support, lending, investment, credit risk, guarantee, digital scoring.

KIRISH

Kichik biznes iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy daromadlar bazasini kengaytirish va aholi tadbirkorlik faolligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu sababli kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga barqaror va maqbul shartlarda kirishini ta‘minlash bank tizimi oldidagi strategik vazifalardan biri hisoblanadi.¹

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 56,3 foizdan 2025-yilda 52,2 foizga teng bo‘lgan. Shu bilan birga, 2025-yilda ularning jami bandlikdagi ulushi 74,9 foizni, chakana savdo aylanmasidagi ulushi 83,0 foizni va asosiy kapitalga kiritilgan

¹ World Bank. SMEs Finance. Small and medium enterprises represent around 90 percent of businesses and more than half of global employment. <https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance>



investitsiyalardagi ulushi 61,4 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.²

Bunday sharoitda tijorat banklari faqat kredit beruvchi institut sifatida emas, balki tadbirkorlik loyihalarini baholovchi, moliyaviy maslahat ko'rsatuvchi, pul oqimlarini boshqarishga ko'maklashuvchi hamda risklarni taqsimlovchi moliyaviy hamkor sifatida faoliyat yuritishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznesni banklar orqali moliyalashtirish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda axborot assimetriyasi, kredit rationingi, garov ta'minoti, tranzaksiya xarajatlari va munosabatlarga asoslangan kreditlash konsepsiyalari doirasida keng o'rganilgan. Kichik korxonalarda auditdan o'tgan hisobotlar, kredit tarixi yoki likvid garovning yetarli bo'lmashligi bankning qarz oluvchi haqidagi axborotini cheklashi mumkin. Natijada kredit narxi va talab qilinadigan ta'minot miqdori ortadi.³

Zamonaviy tadqiqotlarda moliyaviy texnologiyalar, alternativ ma'lumotlar, elektron hisob-fakturalar, tranzaksiya tarixi va soliq ma'lumotlari asosidagi skoring kichik biznes kreditlashida axborot nomutanosibligini kamaytiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. Shuningdek, davlat kafilliklari va riskni bo'lishish mexanizmlari yetarli garovga ega bo'lmagan, biroq iqtisodiy jihatdan istiqbolli loyihalarning moliyalashtirilish imkoniyatini oshiradi.⁴

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar, mantiqiy umumlashtirish va grafik usullardan foydalanildi. Empirik bazani O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlari tashkil etdi. 2021–2025-yillar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi tahlil qilinib, bank kredit portfelining sifat ko'rsatkichlari bilan bog'liq institutsional xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini baholashda faqat ajratilgan kredit miqdorini emas, balki kredit resursining muddati va qiymati, qarz oluvchini baholash sifati, garov talablari, arizani ko'rib chiqish tezligi, riskni bo'lishish instrumentlari va kreditdan keyingi monitoringni birgalikda hisobga olish zarur (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi, %⁵

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
YalIM	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2
Asosiy kapital investitsiyalari	45,6	47,9	49,6	52,4	61,4
Bandlik	74,5	73,9	74,0	73,9	74,9
Chakana savdo	86,2	84,7	83,4	84,2	83,0
Xizmatlar	51,7	49,4	56,8	56,7	56,7

Jadval ma'lumotlari kichik tadbirkorlikning YalIMdagi ulushi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, uning investitsion faolligi sezilarli oshganini ko'rsatadi. 2021–2025-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulush 45,6 foizdan 61,4 foizgacha ko'tarilgan. Bu kichik biznesda ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va kengaytirishga bo'lgan talab kuchayayotganini hamda banklarning uzoq muddatli investitsion kreditlariga ehtiyoj ortayotganini anglatadi.⁶ (1-jadvalga qarang)


2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, 2021–2025. <https://siat.stat.uz/>

3 Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information. American Economic Review, 1981, Vol. 71, No. 3, pp. 393–410.

4 OECD. OECD Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard: 2025 Highlights. OECD SME and Entrepreneurship Papers, No. 67, 2025. <https://doi.org/10.1787/64c9063c-en>


5 Manba: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi. <https://siat.stat.uz/data/1596/>



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi, 2021–2025-yillar⁷

YalMdagi ulushning 56,3 foizdan 52,2 foizgacha kamayishi kichik biznesning mutlaq hajmi qisqarganini avtomatik ravishda anglatmaydi. Mazkur ulush iqtisodiyotning boshqa segmentlari tezroq o'sishi natijasida ham o'zgarishi mumkin. Shu sababli banklar kichik biznesni moliyalashtirish strategiyasini faqat bitta makroko'rsatkichga emas, balki tarmoq, hudud, pul oqimi va investitsiya ehtiyojlariga asoslangan kompleks segmentatsiya asosida shakllantirishi lozim. (1-rasmga qarang)



2-rasm. Kichik tadbirkorlikning asosiy kapital investitsiyalaridagi ulushi, 2021–2025-yillar⁸

Bank tizimining umumiy kredit sifati ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ta'sir etadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, tijorat banklarining jami kreditlari 2025-yil 1-martda 540,0 trln so'mni, muammoli kreditlar 24,35 trln so'mni yoki 4,5 foizni tashkil etgan. 2025-yil 1-dekabrda kelib jami kreditlar 595,3 trln so'mga yetgan, NPL esa 20,55 trln so'm yoki 3,5 foizgacha pasaygan. Kredit portfeli sifati yaxshilanishi banklarning yangi biznes loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini oshiruvchi omillardan biridir.⁹ (2-rasmga qarang)

Bevosita bank moliyalashtirishining dinamikasi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmining amaldagi holatini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Markaziy bank statistik byulletenlarida ushbu ko'rsatkich

⁷ Manba: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁸ Manba: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2025-yil 1-dekabr holatiga ma'lumot. 2025. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3182819/>




kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar sifatida yuritiladi. Shu sababli quyidagi qator rasmiy statistik tasnifga muvofiq keltirilgan (2-jadval)

2-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi¹⁰

Yil	Ajratilgan kreditlar, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %	2021-yilga nisbatan indeks, %
2021	59 552,1	-	100,0
2022	69 770,3	17,2	117,2
2023	73 009,4	4,6	122,6
2024	92 424,8	26,6	155,2
2025	131 215,0	42,0	220,3

Jadvaldan ko'rinadiki, mazkur yo'nalishda ajratilgan kreditlar 2021-yildagi 59 552,1 mlrd so'mdan 2025-yilda 131 215,0 mlrd so'mga yetgan, ya'ni 2,2 baravardan ko'proq oshgan. Eng yuqori yillik o'sish 2025-yilda kuzatilib, 2024-yilga nisbatan 42,0 foizni tashkil etgan. 2022-yilda o'sish 17,2 foiz, 2023-yilda 4,6 foiz, 2024-yilda esa 26,6 foiz bo'lgan. Bu kredit resurslarining tadbirkorlik segmentiga yo'naltirilishi jadallashganini ko'rsatadi, biroq moliyalashtirish hajmining o'sishi kreditlarning samaradorligi, qaytuvchanligi va subyektlar kesimidagi qamrov bilan birgalikda baholanishi lozim.¹¹ (2-jadvalga qarang)



3-rasm. Kichik va o'rta tadbirkorlik hamda tadbirkorlik maqsadlaridagi kreditlar dinamikasi, 2021–2025-yillar¹²

2025-yilda jami 131 215,0 mlrd so'mlik kreditning 96 386,2 mlrd so'mi yuridik shaxslarga, 10 383,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlarga va 21 841,4 mlrd so'mi aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan. Asosiy yo'nalishlar kesimida 32 040,4 mlrd so'm mikrokreditlar, 4 402,5 mlrd so'm oilaviy tadbirkorlik dasturlari, 48 995,7 mlrd so'm xizmat ko'rsatish va servis sohasi hamda 18 718,0 mlrd so'm tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga to'g'ri kelgan.¹³ (3-rasmga qarang)

10 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2025-yillardagi statistik byulletenlari asosida muallif hisob-kitobi.

11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari: 2021-yil - 59 552,1 mlrd so'm; 2022-yil - 69 770,3 mlrd so'm; 2023-yil - 73 009,4 mlrd so'm; 2024-yil - 92 424,8 mlrd so'm; 2025-yil - 131 215,0 mlrd so'm. <https://cbu.uz/>

12 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletenlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2025-yil. 5.3.11–5.3.12-jadvallar: yuridik shaxslar - 96 386,2 mlrd so'm; yakka tartibdagi tadbirkorlar - 10 383,3 mlrd so'm; aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun - 21 841,4 mlrd so'm. <https://cbu.uz/>



Element	Amaldagi vazifa	Takomillashtirish yo'nalishi	Kutilayotgan iqtisodiy samara
Kredit skoringi	Moliyaviy hisobot va kredit tarixini baholash	Tranzaksiya, soliq va elektron savdo ma'lumotlarini integratsiya qilish	Baholash aniqligi oshadi, axborot assimetriyasi kamayadi
Garov ta'minoti	Kredit riskini qoplash	Pul oqimiga asoslangan kreditlash va kafillik instrumentlarini kengaytirish	Kreditga kirish imkoniyati kengayadi va garovga qaramlik pasayadi
Kredit narxi	Risk va resurs qiymatini qoplash	Risk darajasiga mos differensial stavka va kompensatsiya mexanizmi	Risk va kredit narxining muvofiqligi yaxshilanadi
Monitoring	Kredit qaytishini nazorat qilish	Erta ogohlantirish indikatorlari va avtomatik monitoring	Muammoli kreditlarni erda aniqlash va yo'qotishlarni kamaytirish
Mahsulot dizayni	Standart kredit mahsulotlari	Tarmoq va biznes sikliga mos modul kredit mahsulotlari	Mijoz ehtiyojiga moslashuv hamda kreditdan foydalanish samaradorligi oshadi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda "risk-salohiyat-raqamli faollik" uch komponentli segmentatsiya modeli taklif etiladi. Modelda qarz oluvchining kredit riski (to'lov intizomi va qarz yuki), rivojlanish salohiyati (pul oqimi, tushum barqarorligi va kontraktlar portfeli) hamda raqamli faolligi (hisobvaraqlar tranzaksiyasi, soliq va elektron savdo ma'lumotlari) yagona reytingga birlashtiriladi. Ushbu reyting asosida kredit limiti, foiz stavkasi, ta'minot talabi va monitoring intensivligini differensial belgilash nazarda tutiladi.(3-jadvalga qarang)

Taklif etilayotgan mexanizmning markaziy elementi - kichik biznes subyektlarini risk va rivojlanish salohiyati bo'yicha segmentlashdir. Bank mijozlarni faqat garov qiymati asosida emas, balki operatsion pul oqimi, tushum barqarorligi, soliq intizomi, kontraktlar portfeli, hisobvaraqlardagi tranzaksiya faolligi va kredit tarixini birlashtirgan reyting asosida baholashi maqsadga muvofiq.¹⁵ Bunda past riskli va barqaror pul oqimiga ega subyektlarga soddalashtirilgan tartibda va nisbatan arzon resurslar, o'rta riskli subyektlarga kafillik yoki riskni bo'lishish instrumentlari bilan kredit, yuqori riskli yangi bizneslarga esa kichik limitli bosqichma-bosqich moliyalashtirish taklif qilinishi mumkin. Mazkur yondashuv bank uchun kredit riskini boshqarish, tadbirkor uchun esa moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy faollik va bandlikning muhim tayanchi bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik tadbirkorlikning asosiy kapital investitsiyalaridagi ulushining 2025-yilda 61,4 foizga yetishi banklarning investitsion kredit mahsulotlarini kengaytirish zaruratini kuchaytiradi.¹⁶

Tijorat banklarida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Kichik biznes mijozlarini tarmoq, pul oqimi va kredit riskiga ko'ra segmentlab, har bir segment uchun differensial kredit shartlarini joriy etish.

2. Kredit skoringiga bank hisobvaraqlari tranzaksiyalari, soliq va elektron savdo ma'lumotlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

¹⁴ Manba: muallif ishlanmasi.

¹⁵ Berger A.N., Udell G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance. Journal of Banking & Finance, 2006, Vol. 30, No. 11, pp. 2945–2966.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi. 2025-yil - 61,4 foiz. <https://siat.stat.uz/data/1596/>



3. Garov yetishmasligi muammosini kamaytirish uchun kafillik, riskni bo'lishish va pul oqimiga asoslangan kreditlash instrumentlarini kengaytirish.
4. Investitsion loyihalar uchun uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish hamda kredit muddatini loyihaning real pul oqimi davriga moslashtirish.
5. Kreditdan keyingi monitoringda erta ogohlantirish indikatorlarini qo'llab, muammoli qarzdorlik yuzaga kelishidan oldin restrukturizatsiya va maslahat choralari ishga tushirish.
6. Banklarda kichik biznes uchun raqamli "yagona oynali" kredit jarayonini rivojlantirib, ariza topshirishdan kredit ajratishgacha bo'lgan vaqt va tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2025-yil. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. - 130 b. <https://cbu.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2024-yil. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. <https://cbu.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2023-yil. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024. <https://cbu.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2022-yil. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. <https://cbu.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten. 2021-yil. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022. <https://cbu.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Kichik tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, 2021–2025. <https://siat.stat.uz/>
7. Berger A.N., Udell G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance // Journal of Banking & Finance. - 2006. - Vol. 30, No. 11. - P. 2945–2966. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.008>
8. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. - 1981. - Vol. 71, No. 3. - P. 393–410.
9. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. - 2006. - Vol. 30, No. 11. - P. 2931–2943. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.009>
10. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2025: An OECD Scoreboard. - Paris: OECD Publishing, 2025. <https://doi.org/10.1787/64c9063c-en>
11. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. - Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance>
12. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. - Basel: Bank for International Settlements, 2000. <https://www.bis.org/>
13. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. - 13th ed. - Pearson, 2021.
14. Saunders A., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. - 10th ed. - McGraw-Hill Education, 2021.
15. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management & Financial Services. - 9th ed. - McGraw-Hill Education, 2013.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
